

“YASHIL IQTISODIYOT” GA O’TISH SHAROITIDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Xaydarova Farangiz Zoir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika

instituti Geyografiya va iqtisodiy

bilim asoslari yunalish 2-kurs talabasi

ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация: В данной статье освещен опыт стран Европы и Азии. Сравнивается опыт Узбекистана и Италии в переходе к зеленой экономике и изучаются их различия. Подходы этих стран основаны на их экономическом развитии, географическом положении и ресурсах. В Узбекистане проекты зеленой инфраструктуры сейчас развиваются в Ташкенте и других крупных городах. В Италии такие города, как Рим и Милан, имеют зеленое строительство и экологическую транспортную инфраструктуру. Сегодня Узбекистан, как новичок, имеет большой потенциал в переходе к зеленой экономике, особенно солнечной энергетике и водосберегающим технологиям. Италия, как развитая страна, обладает опытом и технологиями и является лидером глобальных экологических инициатив. Выходит.

Ключевые слова: «зеленая» экономика, возобновляемые источники энергии, природные ресурсы, энергоэффективность, электрифицированный автомобиль.

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE TRANSITION TO THE "GREEN ECONOMY"

Abstract: In this article, the experiences of European and Asian countries are highlighted. The experiences of Uzbekistan and Italy in the transition to a green economy are compared and their differences are studied. The approaches of these countries are based on their economic development and geographical situation and resources differ. In Uzbekistan, green infrastructure projects are now developing in Tashkent and other large cities. In Italy, cities such as Rome and Milan have green construction and ecological transport infrastructure. Today, Uzbekistan, as a newcomer, has great potential in transitioning to a green economy, especially solar energy and in water saving technologies. Italy, as a developed country, has experience and technology and is a leader in global environmental initiatives. comes out.

Key words: Green economy, renewable energy source, natural resources, energy efficiency, electrified vehicle.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevropa va Osiyo mamlakatlar tajribalari misolida ma`lumotlar yoritiladi .Bunda O`zbekiston va Italiyaning yashil iqtisodiyotga o`tishidagi tajribalari taqqoslanadi va bir-biridan farqli jihatlari o`rganilib chiqiladi.Bu davlatlarning yondashuvlari o`zining iqtisodiy rivojlanishi ,geografik holati va resurslari bilan farqlanadi. O`zbekistonda Toshkent va boshqa yirik shaharlarda yashil infratuzilma loyihalari endi rivojlanmoqda.Italiyada esa Rim,Milan kabi shaharlar yashil qurilish va ekologik transport infratuzilmasiga ega.Bugungi kunda O`zbekiston yangi boshlovchi sifatida yashil iqtisodiyotga o`tishda ulkan salohiyatga ega ,xususan quyosh energiyasi va suvni tejash texnologiyalarida.Italiya rivojlangan mamlakat sifatida tajriba va texnologiyaga ega bo`lib ,glabal ekalogik tashabbuslarda yetakchilik qilmoqda.Shu kabi ikki mamlakatlarda bulayotga o`zgarishlarning salbiy va nisbiy tomonlari o`rganilib chiqadi.

Kalit so`zlar: Yashil iqtisodiyot,qayta tiklanadigan energiya manbayi,tabiyy resurslar,energiya samaradorligi,elektiramabil.

O`zbekiston Markaziy Osiyoning muhim davlatlaridan biri bo`lib, tabiiy resurslarning boyligi va quyoshli kunlarning ko`pligi yashil iqtisodiyotga o`tishda ulkan imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birgalikda Italiya ham yashil iqtisodiyotda Yevropaning yetakchi mamlakatlaridan biridir. U ekalogik barqarorlik, energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya bo`yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega. Yashil iqtisodiyotga o`tishda asosiy yo`nalishlar va amalga oshirilayotgan ishlarning asosiylaridan biri, *Quyosh va shamol energetikasi* hisoblanadi. 2030-yilgacha qayta tiklanadigan energiya ulushini 25 foizga yetkazish maqsad qilingan. ***Energetika vazirligiga 2023-yil 1-sentabrga qadar yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo`yicha loyihalar doirasida budjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg`armasi mablag`lari hisobidan xalqaro va mahalliy loyiha-qidiruv institutlari bilan to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar tuzgan holda qurilish maydonlarida o`rganishlar o`tkazishga ruxsat berilsin***-shu kabi qarorga muvofiq bir qancha dasturlar yuzasidan ish olib borilmoqda. 2023-yilda Nur Navoi Quyosh Elektr Stansiyasi (100 MVt quvvatli) ishga tushdi. Yana bir qancha shamol va quyosh elektr stansiyalari qurilmoqda.

Italiya yashil iqtisodiyotga Yevropaning yetakchi mamlakatlaridan biridir. U ekalogik barqarorlik, energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya bo`yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega. Yashil iqtisodiyotga o`tishda asosiy yo`nalishlar va amalga oshirilayotgan ishlarning asosiylaridan biri. Qayta tiklanadigan energiya. Energiya ishlab chiqarishning 40 foizdan ortig`i quyosh, shamol va gidroenergetikadan olinadi. Italiya quyosh elektr stansiyalarda yetakchi hisoblanadi. Har yili 20 mingdan ortiq yangi quyosh panellari o`rnatilmoqda. Shamol elektr

stansiyalari bo`yicha janubiy hududlar (Sitsiliya va Apuliya) yetakchi o`rinda turadi. Dengiz bo`yi shamol fermalari loyihalari tezkor sur`atda rivojlanmoqda.

O`zbekistonda energiya samaradorligi iqtisodiy rivojlanish, ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish uchun ustuvor yo`nalishlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Elektr energiyasining isrofgarchiligini kamaytirish va energiya



iste`milining samaradorligini oshirish. Iqtisodiy samaradorlikni oshirishda Sanoat va qishloq xo`jaligida energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish tannarxinipasaytirish mumkin. Energiya samaradorligi 2022-yildan boshlab sanoatda energiya tejoychi texnologiyalar joriy qilindi. 2023-yilgacha sanoat va transportda energiya samaradorligini 20 foizga oshirish rejalashtirilgan. Italiyada ekologik transportni rivojlantirish muhim ustuvor yo`nalishlardan biri hisoblanadi. Hukumat va mahalliy boshqaruv organlari uglerod chiqindilarni kamaytirish, havoni toza saqlash va barqaror transport tizimini shakillantirish uchun keng ko`lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Hukumat eliktiron transportni ommalashtirish maqsadida elektr avtomabellarni xarid qilish uchun subsidiya dasturini joriy qilgan. Xaridorlar 5000 yevrogacha moliyaviy yordam olishlari mumkin. Elektr avtomobillar uchun saliqlarda imtiyozlar taqdim etiladi. Zaryadlash infratuzilmasi Mamlakat bo`ylab elektr transport vositalari uchun zaryad stansiyalari soni tez sur`atda

oshmoqda.2023-yilda zaryad stansiyalari soni 40 000 dan oshgan .Hamda Yevropa Ittifoq bilan hamkorlikda transport yo`llari bo`yida yuqori tezlikdagi zaryad stansiyalari o`rnatilmoqda.O`zbekistonda transport ekalogiyasiga juda katta etibor qaratilgan,Toshkent shahrida elektr avtobuslar soni oshirilmoqda va elektr transport infratuzilmasi rivojlanmoqda.Yaqinda boshlangan loyiha :gaz dvigatelli transportni elektr transportga o`tkazish dasturi rivojlanmoqda.O`zbekistonda elektromobillar va gibrid avtomobillarga qiziqish ortib bormoqda .2024-yilda mamlakatga import qilingan elektromabillar soni 24 095 donani tashkel etdi,bu 2023-yilga nisbatdan 1,5 barobarga ko`pdir.Shu bilan birga,elektromabillarning umumiy importdagi ulushi 20foizdan 32,3 foizgacha oshdi.Natijada ,2024-yil yangi energiya manbalaridan harakatlanuvchi avtomobillar (elektromobillar va gibridlar) importi birinchi marta benzinli avtomabellar importidan oshib ,mos ravishda 55,7 foiz va 44,2 foizni tashkel etdi .Italiyada esa bu kursatgichlar O`zbekistondan ancha farqli ravishda elektromobillar bozori so`ngi yillarda sezilarli o`shishga erishdi.2024-yilning yanvar-may oylarda elektromabellar savdosi 19 % ga kamaydi.2024-yilning birinchi o`n oyida Yevropa Ittifoqida elektromabellar savdosi 4,9% ga kamaydi,bozor ulushi esa 14,4%ni tashkel etadi.Umuman olganda,Italiyada elektromabellar bozori o`shishda davom etmoqda ,ammo ayrim davrlarda savdo hajmi pasayishi mumkin .

O`zbekistonda sust rivojlangan tizimlardan biri bu chiqindilarni qayta ishlash va energiya ishlab chiqarishning katta qismi hali ham gazga bog`liqligidir.Rivojlantirish maqsadida bir qancha dasturlar olib borilmoqda ulardan biri “Toza hudud-sof kelajak” -bu dastur buyicha qattiq maishiy chiqindilarni plastik ,shisha ,qog`oz,organik va boshqa turlarga ajratish tizmini keng joriy qilish lozim .Maxsus rangli qutilarni joriy qilish va aholiga chiqindilarni ajratib tashlashning ahamiyatini tushuntirish darkor.Amaliy chora-tadbirlar bu xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali chiqindi zavodlarni tashkel etish.Mahaliy tadbirkorlrni qo`llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar berish lozim deb bilaman.Italiyada esa Energiya narxi yuqori bo`lib ,bu ayrim sohalarda yashil iqtisodiy loyihalarni sekinlashtirmoqda, ulardan yana biri Ekalogik qonunchilikni kuchaytirishga talab yuqori.Bu kabi masalalarni yechish uchun qayta

tiklanadigan energiya investitsiyalarni oshirish: Quyosh, shamol va gidroenergiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish. Korxonalar va uy xo'jaliklarida energiya tajaydigani texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiyalar berish kerakdir.

O'zbekiston va Italiya yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha turli yo'llar bilan harakat qilmoqda. Italiya ekologik barqarorlikni ta'minlashda ilg'or texnologiyalarni joriy qilgan va chiqindilarni qayta ishlashga yuqori natejalarga erishgan, O'zbekiston esa energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda. Har ikkala davlatda ham yashil iqtisodiyotga o'tish uchun zarur infratuzilma yaratilmoqda va jamoatchilikni ekologik xabardor qilish ishlari olib borilmoqda. Biroq O'zbekistonda bu jarayon hali rivojlanish bosqichida bo'lib, Italiya tajribasini o'rganish va uni mahalliy sharoitda moslashtirishga muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonov, M.M. Yashil iqtisodiyot 2024-151-bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.02.2023 yildagi PQ-57-son
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Geografiya?wprov=sfla1>
4. https://yandex.ru/search/?text=2025+yil+atrof-muhitni+asrash+va+yashil+iqtisodiyot+yili&clid=2411725&search_source=dzen_desktop_safe&src=suggest_W&lr=10335
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/21/yil-nomi/>